



OYBEKNING "BOLALIK" ASARINING YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O`RNI.

Sayfiyeva Muxlisa Sodiqjon qizi

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15195955>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01- Aprel 2025 yil
Ma'qullandi: 07- Aprel 2025 yil
Nashr qilindi: 11- Aprel 2025 yil

KEY WORDS

Bolalik qissasi, Musavoy obrazi, kichkintoylar tarbiya, obraz, sarguzasht,

ABSTRACT

Ushbu ilmiy maqolada Oybekning hayoti va ijodi, hamda Oybekning «Bolalik» qissasi talqini, bu asarda yoshlar tarbiyasida tutkan o'rnini ta'sir etuvchi omillar talqin etilgan.

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek o'tgan asrimizning buyuk adiblaridandir. Uning "Alisher Navoiy", "Qutlug' qon", "Quyosh qoraymas", "Oltin vodiya shabadalar" romanlari, "Bolalik", "Nur qidirib", "Alisherning bolaligi" kabi qissalari, she'r va dostonlari — jami 19 tomlik mukammal asarlari bizga meros bo'lib qoldi. "Bolalik" qissasi bir necha bor nashr etilgan va turli avlodlarning ko'ngil mulkiga aylanishga ulgurib bo'gan. Uni yangi asrimizning yosh avlodlari o'qir ekanlar, bundan yuz yil muqaddam bobolarining bolaligi qanday kechganligini, qanday qiyinchiliklar bo'lganligini bilib oladilar va bugungi chin ma'nodagi hurlik, mustaqillikning va hozirgi shart sharoitlarning qadriga yetadilar Ustoz Oybekning «Bolalik» va «Bola Alisher» qissalari mening bolalikda o'qigan va bir umrga mehr qo'ygan kitoblarimdir. Avval «Bolalik»ni o'qiganman, qayta-qayta mutolaa qilganman. Yillar o'tib «Bola Alisher»ni topganman. Bu ikki asar bolaligimning sevimli kitoblari Mirkarim Osimning «O'tror», Ananyanning «Qoplon dara asirlari», G'afur G'ulomning «Shum bola» va ertak to'plamlari qatorida edi. Atoqli o'zbek yozuvchisi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek turfa voqealarga boy, mashaqqatli va shu bilan birga ajoyib hayot yo'lini bosib o'tgan. U xasta xolida ham ijod qilishni to'xtatmagan. Qo'lingizdagi «Bolalik xotiralarim» kitobida u ana shu yo'lning 1917- 1918 yillarga qadar bo'lgan qismi bilan siz hurmatli kitobxonlarni tanishtiradi. Oybek singari ulug' allomalarning bolalik va yoshlik kezlari ularning ko'cha changitib yurgan oddiy boladan xalqning mutafakkir siymolaridan biriga aylanishi, ayniqsa, yosh avlodlar uchun hamisha maroqli va ibratlidir.

Oybekning —Bolalik qissasi avtobiografik xarakterda bo'lib, uning bosh qahramoni — Musavoy, ya'ni bo'lajak adibning o'zidir. Qissa bola tilidan hikoya qilinadi. Undagi voqealar Oybekning bolalik xotiralaridir, lekin muallif faqat xotiralar bilan cheklanib qolmasdan, o'sha davrning yirik voqealarini ham tasvirlaydi. Qissa voqealari XX asrning 10-yillarida kechadi. Bu davr adibning ayni bolalik davridir. Adabiyotshunos A. Rasulovning ta'kidlashicha, —Oybek davrlarni yaxshi eslaydi. Aniqrog'i XX asrning 10-yillari voqeligi odamlari Oybek ijodining yorqinlaridan birini belgilaydi. U —"Bobom" —"Bolalik" —"Baxtigul" va "Sog'indiq" —"Ulug'

yo'l" asarlarida shu davrni tasvirlaydi. Demoqchimizki, Oybek ijodini o'rganganda biografik metodni zinhor unutmaslik kerak. Bizningcha badiiy so'z tahlilida asar mohiyatini bevosita matn orqali anglagan muhim. Ya'ni muallifdan matnga emas, matndan muallifga tomon borgan ma'qul. Garchi, –"Bolalik" qissasi voqealari memuar tarzda bo'lsa ham, muallif unga bir qancha ijtimoiy ruh bag'ishlaydi. Bu narsa asarning keyingi boblarida ijtimoiy voqealarning yorqinlashuvida ko'rinadi. –Bolalik qissasidan bola rivojlanishida ijtimoiy muhit va sotsiogenetik omillar muhim ekanligini anglash mumkin. Chunki Musavoyning hayoti asosan ijtimoiy muhitda: bozorda, ko'chada o'tadi. Musavoy ham Shum bola kabi o'smir yigit. Faqat G'. G'ulom Shu bolaning 5-6 oylik sarguzashtini tasvirlasa, Musavoyning kamida o'n yillik hayoti aks ettiriladi. Uning yoshi (4-14) muallif tomonidan aniq ko'rsatiladi. Oybekning qirq olti yoshida og'ir va bir umrli og'ir xastalikka yo'liqqanida shunday ijodiy kuchga to'lgan edi. Ammo xastalik uning tiliga kishan solib o'ng qo'lidagi qalamni bir umrga tortib oldi. Oybek ko'pgina asarlarini jumladan "Bolalik" qissasini ham oila a'zolariga aytib yozdirdi. Oybekning "Bolalik" qissasi estetik janrda yozilgan. Asarda bosh qahramonning biografiyasi xalq hayoti davr hodisalari ijtimoiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq holda tasvirlangan. Qissada bosh qahramon Musaboyning biografiyasini hikoya qilish orqali o'sha yillardagi xalq hayotining keng haqiqiy bo'lgan manzarasi chizilgan. Qissa o'z uslubining mayinligi lirizmga boyligini voqealar mantig'ining kuchliligi va izchilligi, obrazlarning aniqligi, qissa tilining ravon va jozibadorligi bilan kitobxonlarga manzur bo'ladi. Oybek bu qissani yozish bilan birga o'zining bolalar dunyosini, kichkintoylar psixologiyasini qanchalik chuqur bilishini namoyish etadi. Chunki bu asarda bolalar xarakteri va psixologiyasining turli xil, hatto ba'zan ko'z ilg'amas darajada nozik bo'lgan murakkab tomonlari ham mohirlik bilan ochib berilgan. Oybekning "Qutlug' qon" romani voqealari bilan "Bolalik" qissasi voqealari bir-biriga o'xshashlik joylari mavjud. M. Qo'shjonov ta'kidlaganidek – Tarixdan ma'no izlashni Oybek umrining oxirigacha davom ettirdi. U o'zining "Bolalik" qissasida temirchi Jo'ra, Tursunlar va Yo'lchilar davriga murojaat qiladi. "Bolalik"da temirchi jo'rani eslatadigan kosib va masteroviylar obrazini yaratdi. "Bolalik"da yana bir xulosa Oybek poemalari bilan uchrashamiz. Bu esa adib qahramonlarining hayotiy ekanligini yana bir tasdiqlaydi Oybekning "Bolalik" qissasi shaxsiy sarguzashtlar ifodasi bo'lib qolmasdan, adib qalamining har bir harakatida katta umumlasmalar, davrning xarakterli voqealari, muhim masalalari talqini yotadi. Asar bosh qahramoni Muso doim bobosi Otaqo'zi bilan birga yuradi. Undan latifalar, ertaklar, rivoyatlar tinglaydi. Ikkinchi bobosi (onasining otasi) ham Musoni juda yaxshi ko'radi. Muso bobosi huzurida xalifalarning turli hangomalarini eshitadi. Onasi Karomatning Mashrab Fuzuliy g'azallarini o'qishi Musoda kitobga havas uyg'otadi. U maktabga o'qishga borganda ham qunt bilan domlasi buyurgan vazifalarni bajaradi. U ayniqsa Navoiy she'riyatini juda sevadi. Ilk daf'a Navoiyning ijodini o'qir ekan, Navoiyga bo'lgan munosabatini quyidagi satrlarda bayon qiladi: Baytlari ishqiy, falsafiy, chuqur mazmunli Haqiqatdan, Navoiy menda pok sevgi yaratdi. Uning she'rlarini zavq bilan, chuqur his bilan o'qiyman. Pok muhabbatni, chuqur ma'noni yoqimli hisni ilk daf'a Navoiydan o'rganaman. Oybek xalq tili boyligini ruhini mukammal bilgan va ulardan ustalik bilan bilgan va ulardan ustalik bilan foydalana oladigan san'atkor bo'lganligi uchun ham "Bolalik"ning tili shirali, sodda va ravon. Asar tilining bu fazilati, eng avvalo adibning tabiiylikni ta'minlashi bilan o'lchanadi. Chunki umuman ijodda, xususan tilda tabiiylikni ta'minlamay turib, obrazlilikni yuzaga keltirib bo'lmaydi. Negaki, hayotimizdan mahrum obrazlilik, badiiylik emas, sun'iylikdir. "Bolalik"da yozuvchi har bir

nutq vositasini, sharoitni, qahramonlar sevgisini, intilish va dunyo qarashini nazarda tutgan holda qo'llagani uchun tabiiylikni ta'minlay olgan. Ustoz Oybek har bir asarida xalqimiz taraqqiyoti tarixidagi xarakterli davrni qalamga oladi. Uni butun murakkabligi bilan juda haqqoniy ifodalaydi. Natijada ko'p qirrali ijtimoiy, siyosiy, va madaniy hayotimiz munavvar ko'zgu sifatida namoyon bo'ladi. Sevimli adib har bir tarixiy jarayonini haqqoniy aks ettirar ekan, xalq qalbi va ruhini butun to'laligi bilan ijodlashga va badiiy mahsul qaddini tiklovchi tasviriy vositalarning tabiiyligiga alohida e'tibor beradi. Binobarin hayotiy materialning tabiiyligi ham zarur. Adib bu masalaga hamisha yuksak san'atkorlik nuqtai nazaridan yondashadi. Oybek ijodkorning xalq tilidan foydalanishda alohida ma'suliyatini nazarda tutishni uqtiradi. Ayni vaqtda yozuvchi tiliga ijodiy yondoshsa, uning xizmatlari xalq tili taraqqiyotiga ta'sir etishini ham ta'kidlaydi. Tilning boyishida, ijod va so'zlarning aniqlanishida fikrlarni ochiq va yrtqizib bera bilishida adabiyotning, san'atkorlarning katta xizmatlari bo'ladi. Bu esa badiiy qalamning mo'jizakorligini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Xullas, tahlilga tortilgan qissalarda adib o'z asarida bolaligini qanday qiyinchiliklarga duch kelganligini, qanday kunlarni boshidan o'tqazganligini va kechinmalarini bilib olamiz. Bundan xulosa chiqarishimiz kerakki hozirgi yoshlar hayotiga nisbatan avvalgi yoshlar hayoti orasidagi faqrq va hozirgi kundagi yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratilganligi va bundan unumli fiydanishimiz kerak ekanligini tushunamiz. Qolaversa bu asarda bola obrazlarining mavjudligidir. Chunki muallif asarda bola obrazini yaratishdan muayyan badiiy maqsadni ko'zlaydi, uning ruhiy erkinlikka bo'lgan tashnaligi bola obrazida mujassamlashadi. XX asr o'zbek qissachiligining rivojlanishi unda inson ruhiy olamini kengroq tasvirlashga urinishda namoyon bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Zunnunov. Adabiyot o'qitish metodikasi. N.: —O'qituvchi||, 1992.
2. Zunnunov A., Xotamov N. Adabiyot nazariyasidan qo'llanma. O'rta maktablarning yuqori sinflari uchun. — T.: O'qituvchi, 1978
3. Imomova G.M. Tipik milliy xarakterlar yaratishda badiiy nuqning |roli: Filol. Fanlari nomzodi ... dis. Avtoref. -T., 1993. — 135 b.
4. Yuldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik taxdili asoslari. -T.:Fan, 2007.-1236
5. Matjon S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. — T.: O'qituvchi, 1996.-145